PEDAGOGIK MAHORAT

A.M.Qarshiboyeva

SamDPI, Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi yo'nalishi

1-kurs 101-guruh talabasi

ANOTATSIYA: Ushbu maqolada Pedagogik mahorat haqida tushuncha hamda uning zamonaviy talim tizimi va o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni tahlil qilinadi. Pedagogik mahorat ta'lim jarayoniga inovatsion yondashuvni tadbiq etish mahsuli ekanligi yoritiladi.Pedagogik mahoratni shakllantiruvchi omillar, pedagogik mahoratni egallash vositalari keltiriladi. Ushbu tadqiqot natijalari pedagog kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Pedagogik mahorat, qobiliyat, ijtimoiy faoliyat, zamonaviy ta'lim metodlari, kasbiy bilim, reflektiv qobiliyat, ijodiy yondashuv, mentorlik va hamkorlik, mohir pedagog.

Kirish: O'qituvchi barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahorat qirralarini namoyon eta olishi, yetuk o'qituvchi sifatida barkamol insonni tarbiyalashga, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur.

Pedagogik mahorat- o'qituvchi ijodkorligining oliy namunasi bo'lib, u yillar davomida shakillanadi. Uning yuksak mahoratni egallashi g'oyat murakkab jarayon bo'lib, pedagogika fanining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi yuqori pedagogik mahorat va keng dunyoqarashga ega bo'lishi kerak. Shundagina oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi, ijodkorlik uning hamisha hamkori bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat

egasi bo‘lishi mumkin. Ushbu maqolada pedagogik mahoratning nazariy asoslari, uni shakillantirish yo’llari va tarkibiy qismlari, ta’lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Asosiy qism: Pedagogik kasb mahorat egasi bo‘lishni taqazo qilar ekan, eng avvalo shaxsning rivojlanishi dinamikasi qonuniyatlari haqida gap boradi. Bu esa o‘z navbatida o‘z kasbining metodologiyasini chuqur o‘zlashtirishni taqozo etadi. Pedagogik mahorat – tug‘ma talant yoki nasldan-naslga o‘tuvchi xususiyat emasligi hammaga ma’lum. U oylar, yillar davomida tinmay, tizimli ishlash, izlanish, yangilikka intilish evaziga shakllanadi. Shuning uchun ham pedagogik mahorat har bir o‘qituvchi uchun alohida xususiyatga ega, u bir xilli, standart bo‘lishi mumkin emas. Mahoratli o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarini bugungi kundagi holatlari bilan emas, balki, kelajakdagi ularni tutadigan o‘rinlari hissiyoti bilan yashashi lozim. Toki uni tarbiyalab, voyaga etkazgan har bir o‘quvchisi turmushdagi hodisa-voqealarga sinchkovlik bilan yondashadigan, ilmiy nuqtai nazardan tahlil qila oladigan va to‘g‘ri munosabatda bo‘la oladigan bo‘lishlari lozim. Pedagogik mahorat – o‘qituvchilarning shaxsiy (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati va hokazo) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo‘lib, o‘qituvchilarning ta’lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta’minlovchi faoliyatdir. U o‘z fanini mukammal bilgan, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarlikka ega bo‘lgan, o‘quvchilarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo‘llarini izlab topish uchun, amaliy faoliyat olib boradigan har bir o‘qituvchining kasbiy faoliyatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayon tarbiyaviy faoliyatning barcha turlarini optimallashtirish, shaxsni har tomonlama rivojlantirish va takomillashtirishga yo‘naltirish, uning dunyoqarashini, qobiliyatini, ijtimoiy faoliyatida ehtiyojlarini yuqori professional darajada shakllantira olishdir. Mahorat harakatda namoyon bo‘ladi.

Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

1.Kasbiy bilim – o‘rganilayotgan mavzuni chuqur tushunish, zamonaviy ta’lim texnologiyalari va usullari bilan tanishish.

2. Pedagogik mahorat – o‘quv jarayonini tashkil etish malakalari, o‘quvchilarni faollashtirish va rag‘batlantirish usullari, o‘qitishning turli shakl va usullaridan foydalana bilish.

3. Muloqot ko‘nikmalari – o‘quvchilar, hamkasblar va ota-onalar bilan umumiy til topish qobiliyati, samarali muloqot qilish va sinfda ijobiy psixologik muhit yaratish qobiliyati.

4. Reflektiv qobiliyatlar – o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash qobiliyati, xatolarni topish va tuzatish qobiliyati, o‘z-o‘zini takomillashtirish.

5. Ijodiy yondashuv – ish usullari va shakllarini tanlashda ijodkorlik, pedagogik muammolarni hal qilishda tashabbuskorlik.

6. Psixologik tayyorgarlik – har bir o‘quvchining individual psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashish, motivatsiyani oshirish, dars jarayonida ijobiy muhit yaratish o‘qituvchidan chuqur psixologik bilimlarni talab etadi. Bu pedagogik jarayonning muvaffaqiyatli kechishini ta’minlaydi.

7. Kommunikativ ko‘nikmalar – o‘qituvchining o‘quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot qilish qobiliyati pedagogik mahoratning ajralmas qismidir. Muloqot jarayonida ishonch uyg‘otish, ijobiy munosabat o‘rnatish, fikrni aniq va ravon yetkazish muhim ahamiyatga ega.

8. Innovatsion yondashuv – zamonaviy o‘qituvchi doimiy ravishda o‘z ustida ishlashi, yangiliklarni o‘rganishi, ilg‘or tajribalarni amaliyotga joriy etishi kerak. Kompyuter texnologiyalari, interaktiv usullar, masofaviy ta’lim imkoniyatlaridan foydalanish bugungi kunda pedagogik mahoratning zamonaviy talablari sirasiga kiradi.

9. Tarbiyaviy salohiyat – pedagog faqat bilim emas, balki tarbiya ham beruvchi shaxsdir. U o‘quvchilarga ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni singdirishi, ularning dunyoqarashi va shaxsiy kamolotiga hissa qo‘shishi zarur.

O‘qituvchining pedagogik mahorati ta’lim-tarbiya jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, uning sifati va samaradorligini belgilaydi. Bu rol ko‘p qirrali bo‘lib, o‘qituvchilik faoliyatining barcha jabhalariga taalluqlidir. Shuni ta’kidlash joizki, pedagogik mahorati yuqori bo‘lgan o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarining talab va qiziqishlarini chuqur anglay oladi, bu esa ta’lim jarayonini ularning bilim olishga bo‘lgan rag‘batini maksimal darajada oshirishga imkon beradi. Innovatsion yondashuvlar, interfaol usullar va texnologiyalardan foydalanish o‘quv jarayonini nafaqat unumli, balki o‘quvchilar uchun qiziqarli qiladi.

Pedagogik mahoratni shakllantirish:

1.Ta’limga tayyorgarlik – pedagogika va psixologiya sohasida maxsus bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish.

2. Kasbiy tajriba – bu bizga kerakli tajribani to‘plash va nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llashni o‘rganish imkonini beruvchi o‘qitish va o‘quvchilar bilan ishlash amaliyoti.

3. O‘z-o‘zini rivojlantirish – doimiy o‘rganish, ta’limda yangi usul va yondashuvlarni o‘rganish, kasbiy kurslar va seminarlarda qatnashish.

4. Mulohaza va o‘z-o‘zini tahlil qilish – o‘sish va takomillashtirish sohalarini aniqlashga yordam beradigan o‘z faoliyatini muntazam tahlil qilish va baholash.

5. Mentorlik va hamkorlik – hamkasblar bilan o‘zaro munosabat va tajribali o‘qituvchilar rahbarligida ishlash, tajriba almashish imkoniyati.

Zamonaviy texnologiyalar o‘qituvchining o‘z-o‘zini rivojlantirish va takomillashtirish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi, unga istalgan

vaqtda va istalgan joyda ta’lim mazmuni va professional jamoa bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish imkonini beradi. Uzluksiz kasbiy va shaxsiy o‘sish muhimligini anglash, o‘qitish va ta’limga zamonaviy yondashuvlardan faol foydalanish, shuningdek, bilim va ko‘nikmalarni muntazam yangilab borish pedagogik mahoratni muvaffaqiyatli

oshirishning garovidir. Pedagogik mahorat ta’lim jarayonining turli jabhalarida namoyon bo‘ladi.

Bunga misol qilib o‘qituvchi o‘z mahoratini amaliyotda qanday ko‘rsatishiga ta’sir ko‘rsatadigan quyidagi misollarni ko‘rsatishimiz mumkin: Ta’limning faol va interfaol usullaridan foydalanish (guruh ishi, rolli o’yin, raqamli vositalardan foydalanish). Samarali ta’lim muhitini yaratish(sinf xonasi dizayni, ijobiy psixologik muhitni shakillatirish, har xil turdagi darslar uchun muhitni moslashtirish). Sinfdan tashari va loyihaviy ishlarni tashkil etish (ilmiy loyihalar va tadqiqotlar, tadbirlar va tanlovlar, ijtimoiy tadbirar). Xulosa qilib aytganda, pedagogik mahorat o‘qituvchilik kasbining yuragi hisoblanadi. Ustozlik burchini chin dildan ado etish, ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilarda ilmga qiziqish uyg‘otish va ularga hayotda to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish aynan pedagogik mahorat orqali amalga oshadi. Shu bois, har bir o‘qituvchi o‘zining pedagogik mahoratini muntazam rivojlantirib borishga intilishi zarurdir.

Xulosa: Pedagogik mahorat — bu o‘qituvchilik kasbining asosi, ta’lim-tarbiya jarayonining muvaffaqiyati esa bevosita pedagogning bilimdonligi, kasbiy tayyorgarligi, psixologik yondashuvi va shaxsiy fazilatlariga bog‘liqdir. Pedagogik mahorat o‘qituvchiga har bir o‘quvchiga uning bilim darajasi, qobiliyati va o‘rganishdagi afzalliklarini hisobga olgan holda individual yondashuvni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Uzluksiz ta’lim, yangi yondashuv va texnologiyalarni o‘zlashtirish, professional jamoalarda faol ishtirok etish va doimiy ravishda o‘z-o‘zini takomillashtirishga intilish zamonaviy o‘qituvchining pedagogik mahoratini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada tahlil qilinganidek, pedagogik mahorat o‘z ichiga kasbiy kompetensiyalar, kommunikativ ko‘nikmalar, psixologik tayyorgarlik, innovatsion yondashuv va tarbiyaviy salohiyat kabi muhim tarkibiy qismlarni oladi. Ular uyg‘unlashgan holda o‘qituvchining har bir darsni samarali tashkil etishi, o‘quvchilar bilan mustahkam aloqa o‘rnatishi va zamon talablariga javob beradigan ta’limni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F.B.Umarova, D.X.Narzikulova (2025) PEDAGOGIK MAHORAT . Samarqand: “Samarqand davlat chet tillari instituti “ nashriyoti.

2. A’zamjon XOLIQOV (2011) PEDAGOGIK MAHORAT. Toshkent. “TAFAKKUR BO’STONI” nashriyoti.

3. Hasanboyeva, O.M. (2021). Kasbiy pedagogik tayyorgarlik. Samarqand: «Zarafshon».

4. Shodmonqulova, G‘. (2019). Innovatsion ta’lim texnologiyalari. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

5. O’tkir Tolipov, Dilnoza Ro’ziyeva (2019) PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT. Toshkent “ INNOVATSIYA ZIYO” Nashriyoti

6. Shalva Amonashvili. (2015). Pedagogical Process as Education Creation. Moscow: Education Publishing.

7. Hattie, J. (2009). Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. London: Routledge.

8. Freire, P. (2000). Pedagogy of the Oppressed. New York: Continuum.

9. Richards, J.C., & Lockhart, C. (2007). Reflective Teaching in Second Language Classrooms. Cambridge: Cambridge University Press.

10. Brown, H.D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching (5th ed.). New York: Pearson Education.

11. Jo’rayeva N. (2020). Pedagogik mahorat asoslari. Toshkent “ Fan va texnologiyalar) Nashriyoti.